



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

9/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

***Nº S/9 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2024**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy

maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich – siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich – siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI***Nasretdinaova Dilfuza Muxammatdinovna*

ЖЕНЩИНЫ ТАТАРКИ В КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ТУРКЕСТАНА ..... 13-19

*Hujzaniyazov Uktam Eshbaevich*

ҚОРАҚАЛПОҚ ДАВЛАТ АКАДЕМИК МУСИҚАЛИ ТЕАТРИ МУСТАҚИЛЛИК

ЙИЛЛАРИДА ..... 20-25

*Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich*

SURXONDARYO VA QASHQADARYO VILOYATLARIDA DEMOGRAFIK

O'ZGARISHLAR, AHOLI BANDLIGI VA MIGRATSİYA JARAYONLARI ..... 26-32

*Yakubov O'tkir Shermamatovich*

XX ASRNING UCHINCHI CHORAGIDAGI IQTISODIY, IJTIMOIY

O'ZGARISHLAR VA ULARNING DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI ..... 33-37

*Saidboboeva Gulzora Nematzhonovna*

ЎРТА ОСИЁ ЭНЕРГЕТИКЛАРИНИНГ И СЪЕЗДИ ХУСУСИДА ..... 38-43

*Muminov Orifxuja*

QIZILQUMNING LANDSHAFTI VA TARIXIY GEOLOGIYASI ..... 44-49

*Avalova Gulshod Murodullayevna*

HOJI BEKTOSH VALI – MUTASAVVUF FAYLASUF. HOJI BEKTOSH VALI

MAJMUASI: TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI ..... 50-55

*Aytmuratova Janylsyn Jalgasovna, Jamalov Nurlan Yusupovich*

БУЮК АЛЛОМАЛАРИМИЗНИНГ МЕРОСИНИ ҮРГАНИШ АСОСИЙ ВАЗИФАМИЗ ..... 56-61

*Qurbanova Marg'uba*

TIL SOHASIDAGI O'ZBEKİSTON HUKUMATI SIYOSATI, O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI

SIFATIDAGI NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI ..... 62-68

*Shoto'rayeva Sitora Xudoyberdi qizi*

BUXORO XONLIGIDA TOJIDDIN HASANXOJANING TUTGAN O'RNI VA IJTIMOIY

FAOLIYATI ..... 69-72

*Ubайдуллаева Моҳисадаф Суннатилла қизи*

ҚўФИРЧОҚ ЎЙИН ЭНГ ҚАДИМГИ НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС СИФАТИДА ..... 73-76

*Xoliqulov Rustam Sharipovich*

YANGI O'ZBEKİSTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH SOHASIDAGI AMALGA

OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR ..... 77-82

*Fayziyev Farrux Uktamovich*

IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLAR O'RTASIDA O'TKAZILADIGAN XALQARO SPORT

MUSOBAQALARINING RIVOJLANISH TARIXI ..... 83-90

*Azamatova Gulmira Bajirbekovna*

МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ

АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ ..... 91-96

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Abduvohidov Behzod</i> ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI O'RNI .....	97-107
<i>Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич, Холиёров Парда Саъдуллаевич</i> КОРХОНАЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНинг ИЛМИЙ-МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	108-124
<i>Payazov Murod Maksudovich</i> “O'ZBEKİSTON TEMİR YO'LLARI” AJDA YO'LOVCHI TASHISH TİZIMINI MODERNİZATSIYALASH DAVR TALABI .....	125-131
<i>Юнусов Бегенч Мавланбердиевич</i> ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ РИВОЖЛАНИШИНИ БАШОРАТЛАШ, УЛАРНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ .....	132-143
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Hoshimjanovich, Sayitbaev Shermirza Datkamirzaevich</i> KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI AYLANMA VOSITALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	144-151
<i>Мадрахимов Каҳрамон Эгамберганович</i> МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИНГ СТРАТЕГИК УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	152-161
<i>Palvaniyazov Anvar Amatovich</i> MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA XORIJYI INVESTITSIYALARINI JALB ETISHDA INVESTITSION SIYOSATNING AHAMIYATI .....	162-165
<i>Raximbayev Akmal Azatboevich</i> HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA XORIJYI TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH .....	166-172
<i>Raxmanova Rushana</i> O'ZBEKİSTONDA TURİZM RIVOJI VA KADRLAR TAYYORLASHDAGI MUAMMOLAR .....	173-178
<i>Xayrullayev Shaxram Yunus o'g'li</i> SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA DINAMIKASI .....	179-186
<i>Qodirov Bahodir Tursunivich</i> “QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI”NING O'ZBEKİSTON İJTIMOİY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI .....	187-192
<i>Bekjanov Dilmurad Yuldashevich, G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich</i> LIZING MUNOSABATALARINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARINING AHAMIYATI .....	193-199
<i>Masharipova Durdona</i> RAQAMLI PLATFORMALARNING GLOBAL TASHQI SAVDOGA TA'SIRI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR .....	200-206
<i>Нурмухамедова Барно Исмаиловна, Урунова Гульнара Чариқулиевна</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РЕАЛИЗАЦИИ ИНИЦИАТИВНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	207-213

<i>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Zakirov Asilbek Adilovich</i>	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATINING	
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH .....	214-218

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon</i>	
TALABALARDA FALSAFIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	219-223
<i>Shaydullayev Normuhammad</i>	
INSON VA JAMIYAT O'ZARO ALOQALARI: MUVOZANAT VA RIVOJLANISH .....	224-228
<i>Раджапбоеva Хуршида Мақсудовна</i>	
ШАРОФ РАШИДОВ БАДИЙ-АДАБИЙ МЕРОСИДАГИ ЭСТЕТИК КЛИШЕНИНГ УНИКАЛ ЎЗИГА ХОСЛИГИ .....	229-233
<i>Abdullahayeva Marhabo Uskinbayevna</i>	
YUSUF XOS XOJIB "QUTADG'U BILIG" ASARIDA AXLOQ MASALASI.....	234-239
<i>Rizaev Ilhom</i>	
ТАРТИБ ВА ХАОС: ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ ФОЯЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ТАДҚИҚИ .....	240-247
<i>Niyozova Nilufar</i>	
OQILONA TURMUSH SHAROITINI YARATISHDA OILANING O'RNI .....	248-252
<i>Usmonov Farrux</i>	
FAN ETIKASI TUSHUNCHASINING TIZIMLI TAHLILI .....	253-258
<i>Mirjavxarova Feruzaxon Usmonjonovna</i>	
AYOLLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY ASOSLARI: TARIXDAN BUGUNGI KUNGACHA .....	259-266
<i>Primov Baxriddin Abdiraxmonovich</i>	
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIY VA G'OYAVIY MEXANIZMLAR .....	267-272
<i>Raxmankulov Farxod Raximkulovich</i>	
ISLOHOTLAR JARAYONIDA MULKDORLAR QATLAMINING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	273-278
<i>Asatov Sodiq Safarovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA PRAGMATIK YONDASHUVLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	279-284
<i>Yusupova Feruza Zoyirovna</i>	
AXLOQIY TAFAKKURNING TAKOMILASHUVIDA AXLOQIY IDEALGA BO'LGAN EHTIYOJ .....	285-290
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i>	
SINERGETIKANING FALSAFIY VA IJTIMOIY DUNYOQARASHGA TA'SIRI .....	291-296
<i>Saodatov Alimardon Abduraxmonovich</i>	
YOSHLARDA TABIAT IFLOSLANISHINI OLDINI OLISH VA UNI ASRAB AVAYLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH .....	297-302

<i>Matluba Abduqodirovna Abdalimova</i>	
FALSAFIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA ANALITIK VA KRITIK	
YONDASHUVLAR .....	303-307
<i>Safarova Tumaris Rustamkulovna</i>	
KOTIB CHALABIYNING SHARQ ILM-FAN TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI .....	308-312
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i>	
АФСОНАВИЙ ДУНЁҚАРАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УНИНГ ИНСОН	
ТАФАККУРИГА ТАЪСИРИ .....	313-316
<i>Mamanov Jamoliddin Abduraximovich</i>	
XRISTIANLIK DININING KELIB CHIQISHI VA G'ARB DAVLATLARIGA	
TARQALISHI .....	317-326
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Karimova Ozodakhon Avazovna</i>	
LINGUOPRAGMATIC STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A SOMATIC	
COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	327-338
<i>Sayfiddinova Gulnoza</i>	
MILLIY UYG'ONISH DAVRI QO'QON ADABIY MUHITIDAGI AYRIM TURKUM	
SHE'RLARNING JANRIY XUSUSIYATLARI .....	339-344
<i>Abdullayev Ziyodbek Mansurovich</i>	
O'ZBEK VA NEMIS TILLARI ANTROPONIMIKASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR:	
KONTRASTIV TAHLIL .....	345-352
<i>Otaboyeva Mazmuna Rahimovna</i>	
FE'LNING SEMANTIK VA GRAMMATIK KATEGORIYALARIDAGI DARAJALANISHI:	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....	353-359
<i>Алиева Эльвина, Темирова Озода</i>	
ПОВЕЛЕНИЯ И ПОБУДИТЕЛЬНЫЕ ВЫСКАЗЫВАНИЯ СО ЗНАЧЕНИЕМ ЖЕЛАНИЯ	
В ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ В. Ф. ХОДАСЕВИЧА .....	360-365
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li</i>	
BADIIY TARJIMADA LEKSIK-GRAMMATIK TRANSFORMATSIYALAR TADQIQI	
(JON GRINNING "THE FAULT IN OUR STARS" ROMANINING O'ZBEK TILIGA	
TARJIMASI MISOLIDA) .....	366-372
<i>Maxmudova Farangiz Muzaffar qizi</i>	
SAID AHMAD HAJVIYALARIDA YUKLAMALARNING AHAMIYATI .....	373-378
<i>Abdumajitov Xurshid Alisher o'g'li</i>	
MULOQOT VA MADANIYAT SHARHIDAGI SPORT TILI .....	379-382
<i>Rajabova Karomat Chorshanbi qizi</i>	
TURKOLOGIYADA SO'ZLASHUV USLUBIGA DOIR IZLANISHLAR .....	383-389
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA JINOY LINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHIDA	
STILISTIK VOSITALARNING O'RNI .....	390-396
<i>Xasanova Kamila Baxtiyorovna</i>	
STUDYING ETHNOGRAPHIC VOCABULARY IN THE UZBEK LANGUAGE .....	397-401
<i>Бобаева Шахноза</i>	
ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В РЕЧИ .....	402-407

<i>Рузибаева Азиза Қахрамановна</i>	
АВАЗ ЎТАР ИЖОДИННИГ ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАЪСИРИ .....	408-413
<i>Umurzakova Aýgul Umarovna</i>	
ARAB TILSHUNOSLIGIDA ZIYORAT TURIZMI TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH JARAYONI .....	414-418
<i>Sobirova Nodirabegim Murodjon qizi, Egamberdiyeva Sarvinoz Esonali qizi</i>	
STILISTIK FIGURALARNING TARJIMADAGI O'ZIGA XOSLIGI .....	419-423
<i>Xo'jamberdiyeva Gavhar Ilhom qizi</i>	
INGLIZ TILIDA "CHILD" KONSEPTINI AKS ETTIRUVCHI NOMINATSIYALAR .....	424-427
<i>Мирзаева Феруза Самижоновна</i>	
ЎЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИДА АНТРОПОНИМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ .....	428-433
<i>Badalbayeva Maloxat Yulchiyevna</i>	
TRANSLATION FEATURES OF EMERGENCY TERMS IN ENGLISH AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS .....	434-438
<i>Berdimurotova Sevara Maxmudovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI NEOLOGIZMLARNING YASALISH USULLARI VA QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI .....	439-444
<i>Po'latova Sarvinoz Botir qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZIDDIYATLI KOMMUNIKATSİYANING LİGVİSTİK EKSPERTİZASI .....	445-449
<i>Aripova Saodat Taxirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI HIKOYALAR TARJIMASINING LİNGVOKULTUROLOGİK XUSUSIYATLARI .....	450-453
<i>Azamatova Gulnoza</i>	
THE GRAMMATICAL CATEGORY OF NUMBER IN THE GERMAN LANGUAGE .....	454-458
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Мухитдинова Фирюза</i>	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ И ПОЛИТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ .....	459-465
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
MULKNI BEGONALASHTIRISH SHARTNOMALARIGA OID KONSEPTUAL YONDASHUVLAR .....	466-470
<i>Ёкубов Шухратжон Восиджон угли</i>	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК АВТОР И ИЗОБРЕТАТЕЛЬ: АНАЛИЗ ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ ПРОИЗВЕДЕНИЙ И ИЗОБРЕТЕНИЙ, СОЗДАННЫХ ИИ, В РАМКАХ АВТОРСКОГО ПРАВА И ПАТЕНТНОГО ПРАВА .....	471-477
<i>Худайбердиева Мафтуна Зафар кизи</i>	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВА ДЕТЕЙ НА БЕСПЛАТНОЕ И КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ И АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ .....	478-483
<i>Begimov Rufat Musurmonovich</i>	
KONSTITUTSIYA – HUQUQ VA ERKINLIKLERIMIZ KAFOLATI .....	484-488
<i>Миножиддинов Абдурасул Баходирович</i>	
АЛИМЕНТ МАЖБУРИЯТЛАРНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ .....	489-494

<i>Иброҳимов Азимжон Абдумумин угли</i>	
“ЎЗБЕКИСТОН ФУҚАРОЛИК ҚОНУНЧИЛИГИДА КОРПОРАТИВ МУНОСАБАТЛАРГА ОИД ҚОИДАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: КОНЦЕПТУАЛ ЁНДАШУВ” .....	495-500
<i>Koryog'diyev Bobur Umidjon o'g'li</i>	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK KODEKSINING YANGI TAHRIRI LOYIHASI BIRINCHI BO'LIM 6-BOBIDAGI KONSEPTUAL MASALALAR TAHLILI .....	501-507
<i>Fайбуллаев Соҳибжон Fайбуллаевич</i>	
ИЖАРА ШАРТНОМАСИГА ОИД ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ БҮЙИЧА АЙРИМ ЁНДАШУВЛАР .....	508-514
<i>Сайдов Бобур Баҳромжонович</i>	
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ В ВЕБ-РАЗРАБОТКАХ .....	515-524
<i>Асадов Шаҳриддин Фахриддинович</i>	
РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА МАСЛАҲАТ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИ ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ .....	525-529
<i>Ганиев Ниҳолбек Валиевич</i>	
НОТИЖОРАТ КОРПОРАТИВ ТАШКИЛОТЛАР .....	530-536
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna</i>	
О'QUVCHILARDA TARBIYAVIY QADRIYATLAR MANBALARI VOSITASIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANI OSHIRISHGA QARATILGAN SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR .....	537-541
<i>Jamalova Nargiza Ulug'bek qizi</i>	
PEDAGOGIKA VA GUMANITAR FANLARINING JAMIyatda TA'LIMNING O'ZGARISHI VA RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNI .....	542-547
<i>Norboyev Nabijon Narziqulovich</i>	
SHAHMAT O'YININING SHAXS INTELEKTUAL SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	548-553
<i>Batirov Behzod Baratovich</i>	
FIZIKA TA'LIM MAZMUNINI TABAQALASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI .....	554-559
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
GENDER METODINING NAZARIY ASOSLARI .....	560-564
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIGA INNOVATSION O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI VA PEDAGOGIK SHAROITLARI .....	565-569
<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYASINING PEDAGOGIK SHARTLARI .....	570-575
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
JISMONIY YUKLAMADAN CHARCHASH VA QAYTARILISH DAVRLARINING FIZIOLOGIYASI .....	576-580
<i>Xudaykulova Dilbarxon Zokirovna, Erkinova Dilshoda Sherali qizi</i>	
BOLALARDA TADQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK JARAYONNING ASOSIY XUSUSIYATLARI .....	581-586

<i>Eshdavlatov Abdullo Boybo'ri o'g'li, Uralov Sardor Abdulla o'g'li</i>	TALABALARING VOLEYBOL MASHG'ULOTLARIDA TEXNIK TAYYORGARLIGI .....	587-593
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	INGLIZ TILINI O'QITISHDA TALABALARING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI TIL ELEMENTLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	594-607
<i>Mirzaeva Kamola Uralovna</i>	THE ROLE OF THE FAMILY INSTITUTE IN EDUCATING A PROFESSIONAL GENERATION .....	608-612
<i>Tursunboyeva Mukhlisa Anvar kizi</i>	BILINGUALISM AS A PROMISING FORM IN CHILDREN'S EDUCATION .....	613-619
<i>Ҳақназарова Нилуфар Куранбоевна</i>	ТАЪЛИМ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ШАРОИТИДА ПЕДАГОГ КАДРЛАР МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТИЗИМИНИ СТРУКТУРАВИЙ-ФУНКЦИОНАЛ ТАЪМИНОТИ .....	620-625
<i>Sheraliyeva Shahnoza Usmanovna</i>	INGLIZ TILIDA TALABALAR YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA TURLI YOZMA MATN NAMUNALARINI TAHLIL QILISHGA QARATILGAN MASHQLARNING AHAMIYATI .....	626-633
<i>Джанабаева Адина</i>	ВОЗМОЖНОСТИ ЦИКЛА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В ФОРМИРОВАНИИ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА .....	634-641
<i>Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich</i>	TALABALARING JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARIDA KUCH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH .....	642-646
<i>Elboyeva Shaxnoza</i>	QASHQADARYO VILOYATIDA PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI .....	647-651
<i>Садиев Валижон</i>	СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ .....	652-657
<i>Pulatova Muhabbat Egamberdievna</i>	UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASI .....	658-663

**Received:** 10 November 2024

**Accepted:** 15 November 2024

**Published:** 25 November 2024

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE OF DOWNLOADING COMICS BY SAID AHMAD**

**Makhmudova Farangiz Muzaffar kizi,**  
Karshi State University Faculty of Philology,  
Department of Uzbek Linguistics, Senior teacher

**Abstract.** In this article, it is clear to everyone that each download in the comics text has its own semantic function, place and importance. The prepositions used in the comics text show Said Ahmed's ability to skillfully use language, as well as to determine and evaluate the means and factors that serve the implementation of linguistic capabilities in the process of a certain speech activity.

**Keywords:** linguistic units, humor, speech units, auxiliary words, independent words, loading pragmatics.

## **SAID AHMAD HAJVIYALARIDA YUKLAMALARNING AHAMIYATI**

**Maxmudova Farangiz Muzaffar qizi,**  
Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti,  
O'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hajviy asarlar matni tarkibida ishtirok etgan har bir yuklamaning o'ziga xos ma'nno vazifasi, o'rni va ahamiyati mayjudligi haqida aytilgan. Hajviy asarlar matnida qo'llangan yuklamalar Said Ahmadning tildan mohirona foydalana olish mahoratidan darak berish bilan birga ma'lum bir nutqiyl faoliyat jarayonida lisoniy imkoniyatlarning voqelanishiga xizmat qiluvchi vosita va omillarni ham belgilash, baholash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** til birliklari, humor, nutq birliklari, yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar, yuklama pragmatikasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N54>

Ma'lumki, har qanday tilning mavjud imkoniyati nutqda, ya'ni kontekstda namoyon bo'ladi, shuning uchun ham turli janrlarda yozilgan badiiy asarlar matni turli aspektlarda tekshirib ko'rilmogda. Asarning til xususiyatlari esa tadqiqotchilar tomonidan turli qarashlarda har xil metodologik va metodik asoslarga ko'ra tahlil qilinadi. Badiiy asarlarning lisoniy xususiyatlari jahon va o'zbek tilshunosligida keng o'rganilgan, til sathlari lingvostilistik, lingvopoetik nuqtai nazardan atroficha tadqiq qilingan, biroq Said Ahmad hajviy asarları tilining leksik-grammatik xususiyatlari, grammatik vositalarning o'ziga xos jihatlari alohida tadqiq etilmagan, hajviy asarlarda yumoristik kayfiyatni ta'minlab beruvchi asosiy til birliklari, kulgi ifodalovchi grammatik birliklar maxsus o'rganilmagan. Ma'lumki, "humor keng ma'noda ijodkorning voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalovchi tushuncha. U tor ma'noda kulgi paydo qiluvchi vositalardan biridir. Ijodkor tomonidan qalamga olinayotgan voqeа-hodisalar ayrim jihatlari bilan uning idealiga zid bo'lmasa ham, biroq unda ayrim nuqsonlar bo'lishi mumkin. Ana shu nuqsonlar ustidan yengil, do'stona kulish yumorning mohiyatini tashkil qiladi.

Yumorni yuzaga keltiruvchi vositalar xilma-xildir: zukkolik, kutilmaganlik, qochiriq, nomutanosiblik va h.k[1]. Shu o'rinda alohida qayd qilinishi lozim bo'lgan masala shuki, hajviy asardagi yumorning paydo qilinishi, zukkolik, qochiriq kabilarning ta'minlanishi muayyan til birliklari va ularning leksik, grammatik, stilistik xususiyatlari bilan ham bevosita bog'liq. Chunki, har qanday nutqiy faoliyatdagi kommunikativ maqsad til birliklarining lisoniy-pragmatik imkoniyatlari orqali ta'minlanadi.

So'zlar morfologik tasnifiga ko'ra o'zgaruvchan va o'zgarmas leksemalarga bo'linadi. Fe'l, ot, sifat, son o'zgaruvchi; taqlid, ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va so'z-gap esa o'zgarmas leksemalar guruhiga mansub.

Leksemalar sintaktik tasnifiga ko'ra gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan, gap bo'lagi bo'lishga xoslangan va sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'zlar guruhiga bo'linadi. Undov, modal, so'z-gap gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan guruhga; fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'zlar turkumiga; ko'makchi, bog'lovchi, yuklama esa sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'zlar sirasiga kiritiladi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'z turkumlari bilan doimiy va uzlusiz aloqadorlikda. Bu nafaqat yordamchi so'zlarning matnda mustaqil so'zlarning voqelanishlari uchun xizmat qiladi, balki yordamchi so'zlar xazinasining uzlusiz ravishda mustaqil so'zlar hisobidan boyib va kengayib borishida, bu jarayonning uzlusizligida, yordamchi so'zlar tizimida tarixan mustaqil so'z bo'lib, hozir tarixiy o'zagidan batamom uzilib ketgan yordamchi so'zlar bilan (chunonchi, bila) bir safda yordamchilashishga ilk qadam tashlayotgan (maqsadida, sababli) mustaqil so'zlardan o'z aloqalarini uzmagan birliklar ham turishida namoyon bo'ladi. Shu bois yordamchi so'zlar "sof" (mustaqil so'zlar bilan aloqasi uzilgan yoki batamom qorong'ilashgan so'zlar) va "funksional" (shakliy-ma'noviy aloqalari mustaqil so'zlar bilan uzilmagan) kabi turlarga bo'linadi [2].

Badiiy asarda til birliklarining har biri ma'lum vazifa bajaradi. Yordamchi so'z mustaqil so'z va gapda grammatik ma'nno ifodalashning alohida turini tashkil etadi. Yozuvchi S.Ahmad komediyalarda qo'llangan yordamchi so'zlar bir qator ifoda imkoniyatlariga ega. Yordamchi so'zlarning umumiyl funksional belgisi "bog'lash"dir. Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchilar uchun o'zgarmas, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish-chegechalash, o'xshatish kabi qo'shimcha ma'nolarni beradi va funksional "bog'lash" belgisiga nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni "bog'lash" belgisi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Yuklamalar boshqa yordamchi so'zlarga nisbatan pragmatik qiymatining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Xususan, unda shaxsiy munosabatning nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda ifodalanishi pragmatik xoslanishning asosini tashkil qiladi. Bu holat badiiy asarlarda yorqin namoyon bo'ladi. Qahramon emotsiyasi, kayfiyatini ochishda, kitobxonga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Yuklama — yordamchi so'zlarning bir turi; ayrim gap bo'lagiga yoki gapga qo'shimcha ma'nno berish uchun qo'llanadi. Yuklama tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi: Yuklama qo'shimcha (qo'shimcha holiga kelib qolgan yuklama: mi, chi, da, a, ya) va yuklama so'z (ayrim so'z holidagi Yuklama: faqat, xuddi, naq, ham). Hozirgi o'zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so'zlarga qo'shilganda anglatadigan ma'nolariga ko'ra Yuklamaning quyidagi turlari farqlanadi: so'roq va taajjub Yuklama lari (mi, chi, a, ya), asosan, gapni so'roq gapga aylantiradi: Bu kitobni o'qidingizmi?; kuchaytiruv va ta'kid Yuklamalari (ku, ham, u, yu, da, oq,

ki) gapga tasviriylik berib, so'z ma'nosini kuchaytirish, shuningdek, ta'kid ma'nosini qo'shish uchun ishlataladi.

Yuklamalarning ma'noviy va stilistik xususiyatlari, vazifa va imkoniyatlari ilmiy adabiyotlarda [3] qayd qilingan bo'lib, shular asosida ham ularning badiiy asarlar tilini shakllantirishdagi o'ziga xos o'rni va ahamiyatini anglash mumkin. Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar sifatida ta'riflanadigan yuklamalar qo'shimcha va so'z holida mavjud. Ularga nutqdagi biror so'zni ajratib ko'rsatish, gapga so'roq ma'nosi berish, his-hayajon, taajjub, ta'kid va kuchaytiruv ma'nosini ifodalash kabilar xos xususiyat sanaladi. Shuningdek, yuklamalar tasdiq, inkor, chegaralov, qistov kabi ma'nolarni ifodalash hamda nutqqa tasviriylik berish uchun ham xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida yuklamalar ma'no va vazifasiga ko'ra quyidagicha guruhlarga bo'linadi: 1) so'roq va taajjub (-mi, -chi, -a, -ya); 2) kuchaytiruv va ta'kid (ku, ham, -u, -yu, -da, -oq, -yoq, -ki, -kim); 3) ayiruv va chegaralov (-gina/-kina// -qina, faqat); 4) aniqlov (xuddi, naq); 5) gumon (-dir); 6) inkor yuklamasi (na-na)[4].

Ayniqsa, yuklamalarning pragmatik, stilistik xususiyatlari, vazifa va imkoniyatlari keng bo'lib, ulardan maqsadga muvofiq va unumli foydalana olish ijodkorning mahorati, salohiyati va tajribasiga bevosita bog'liq. Umuman, yuklamalarning badiiy nutq tarkibida tutgan o'rni, vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular, nafaqat, fikr ifodasi, grammatik vosita, balki nutq egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, salohiyati va madaniyati kabilarni ham namoyon qiluvchi o'ziga xos pragmatik omil hamdir.

Yordamchi so'z turkumlari maqomidagi til birliklari ham boshqa leksik birliklar singari nutqning turli ko'rinishlarida faol ishtirok etadi, o'ziga xos grammatik-pragmatik vazifani bajarib keladi.

Asar personajlarining nutqiga diqqat qaratamiz:

*A s q a r (Ma'murga). Avvalgi kuni kimning to'yiga borganding? Kim to'yga aytsa ketaverasanmi? Bir kun emas, bir kun bizga gap tekkizasan. O'sha to'y qilgan Mingboyev kecha qamaldi.*

*K o m i l. Ishi bojamga oshirilipti. Bazani ham bojam reviziya qilyapti. Mingboyev juda ustasi farang odam ekan.*

*M a ' m u r. Hunarimiz shu bo'lgandan keyin kim to'yga aytsa ketaveramiz-da. Bizga taka bo'lsin, yuz gramm suti bo'lsin. ("Kelinlar qo'zg'oloni")*

*Misolda uch aka-uka personaj nutqiga oid jumlalar aks etgan, har uchala personaj nutqida ham yuklamalar (-mi, ham, -da) ishtirok etgan. Nutq tarkibidagi mazkur yuklamalar muayyan kommunikativ maqsadni ta'minlashga xizmat qilgan. Kim to'yga aytsa ketaverasanmi? jumlesi orqali "Har kimning to'yiga boraverma" tarzidagi tag ma'no anglashiladi. Bunda aka-ukaning o'zaro bir-birini ayash, g'amxo'rlik qilish munosabatiga mos gap ifodasini kuzatamiz. Buyruq gap mazmunining so'roq gap shakli orqali ifodalanishi alohida pragmatik hodisadir, -mi yuklamasi esa sof so'roq ma'noni emas, balki pragmatik maqsad va vaziyat talabiga muvofiq tanbeh pragmatik ma'noni ifodalashga xizmat qilgan.*

*Asar qahramonlari To'xta va Nigoraning o'zaro erkalash holatiga ko'zi tushgan qaynona va Sotti kelinning o'zaro suhbatidan olingan nutq parchasida ham yuklamasi lisoniy imkoniyatining nutqiy voqelanishi bilan bog'liq holatga diqqat qaratamiz:*

*F a r m o n. Nima balo deb javrayapsan?*

*S o t t i. Bu yoqqa qarang, bu yoqqa!*

*F a r m o n (ularni ko'rib yuzini to'sadi). Hayo degan narsa yo'q bu benomuslarda. Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib bir marta ham kunduzi o'pmagandi. Bolalar uxlagandan keyin chiroqni o'chirib qo'yib, keyin o'pardilar.*

*S o t t i. Hozirgilar unaqa emas. Dush kelgan joyda o'pishaveradi... ("Kelinlar qo'zg'oloni")*

*Dialog tarkibidagi Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib bir marta ham kunduzi o'pmagandi jumlasida ishtirok etgan ham yuklamasi bir marta so'z birikmasi bilan birga qo'llanib, "hech qachon" degan mazmunni ifodalashga xizmat qildirilgan. Shu o'rinda hech qachon olmoshini qo'llashdan ko'ra ham yuklamasini bir marta birikmasi bilan birga qo'llash orqali ham yuklamasining imkoniyatidan yumor hosil qilishda samarali foydalanilgan. Qiyoslaymiz: Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib hech qachon kunduzi o'pmagandi.// Otang rahmatlik shundoq Azim sher bo'la turib hech qachon kunduzi o'pmagandi. Qiyosdan ayon bo'ladiki, ayni nutq jarayonida ham yuklamasining "alohida ta'kidlash" ma'nosi bilan ishtirok etishi kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda baholanishi lozim. Fikr ifodasi bilan bog'liq kommunikativ maqsadni "yengil kulgi hosil qilish" tashkil qilib, bunda ham yuklamasining imkoniyatidan unumli va samarali foydalanilgan.*

Adib komediylarida yuklamalar o'z "bog'lash" ma'nosining susayganligi va buning evaziga "subyektiv munosabat" ma'nosi kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Yuklamalarning umumiyligini grammatik ma'nosi, ya'ni substansial qiymati "qisman bog'lash", "asosan, subyektiv munosabat ifodalash" oraliq grammatik ma'nolariga parchalanadi.

Yuklamalar ma'nosiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Har bir tur o'z so'zi va qo'shimcha ma'no ifodalovchi affiksiga ega. Jumladan, -ku, -da, -u (-yu), -oq (-yoq), axir, hattoki, hatto, nahot, g'irt, ham kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi guruhini tashkil etadi. Badiiy asarda bu yuklamalar asosan, dialogik nutqda qo'llanib, so'zlovchining voqe-a-hodisa haqidagi ta'kid munosabatini ifodalab keladi.

1. O'rinbox. To'xtavoy, hoy To'xtavoy. Turmaysanmi, uka. Hovli qiyomat bo'lib ketdi-ku.
2. Farmon. Senga oq sut bergen onangdan xotin aziz bo'pti-da. Yo'q, bunaqasi ketmaydi. Xotiningni hozir oyisini kiga eltilib qo'yasan.
3. To'xta. Axir men sizni sevaman.
4. Sotti. Nima deydi? Qurshov? Paulyus? Tushunolmay qoldim-da. Pamyatim o'lgur, ayniyapti. ("Kelinlar qo'zg'oloni")

Yuqoridagi parchalarda qo'llangan yuklamalar orqali ta'kidlash bilan birga so'zlovchining o'z fikrini uqtirish pragmatik ma'nosi ham reallashgan. Bir jumlada ham qo'shimcha, ham so'z maqomidagi yuklamani qo'llash orqali (4-misol) ta'kidlash ma'nosi kuchaytirilgan. Qahramon shu vositalarni qo'llamay gapirsa, fikrni uqtirish va kuchaytirish ma'nolari o'z-o'zidan "so'nadi". Bu ma'no qirralari namoyon bo'lmasa, nutq intensiyasi mavhumligicha qoladi.

Yozuvchi komediylarida qo'llangan so'roq-taajjub yuklamalari ham bir qator pragmatik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilgan.

1. O'rinbox. Bir-birining diydoriga hali to'ygani yo'g'-a, yana ozroq qo'yib bering. Balki bir-biringlar bilan til topishib ketisharsizlar.
2. To'xta. Yo'q, shaharda shunaqa deyishadi. Ammo mahallada u kishini Marshal kampir deyishadi-ya.
3. Ishonmayapsiz-a? Yo'q, ishoning. Xotin poshshoning yurtini bir ko'rasizmi? Ko'rsatay-a?

4. Nigora. Nima, siz meni sira ham qo'rqmaydi, deb o'ylaysizmi? Agar yetti kelin ko'lni qo'lga berib, bir jang qilsak, Marshal kampirning boshiga qurshovda qolgan feldmarshal Paulyusning kunini solishimiz hech gapmas.

Yuqoridagi jumlalarda qo'llangan -mi, -a (-ya) yuklamalari matnga so'roq va taajjub ma'nolarini yuklagan.

S.Ahmad komediyalarida -chi yuklamasining quyidagi ma'nolarni ifodalashini kuzatish mumkin:

1) so'rash: Jo'ra. Haydamay tur bolani. Qani, ayt-chi, Erkinboy, qaysi o'rtog'ingni buvisini aptyapsan? Erkin. Bitkombinatda biz bilan ishlaydigan fotochi o'rtog'im bor. Oti Arkadiy. ("Kuyov")

2) qistash: Farmon. Xo'sh, menga ayt-chi, senga ona kerakmi, xotin kerakmi? To'xta (o'ylab qoladi. Komil unga ikkita barmog'ini ko'rsatadi). Ikkovingiz ham keraksiz. ("Kelinlar qo'zg'oloni")

3) ta'kid, uqtirish: Sotti. Kelin uxlatmagan-da. Lutfi. Qo'ysangiz-chi, ovsin! Lutfi. Bo'lmasam-chi. Oyimning qo'liga tushdimu yelkamni kim silasa, mushukdek mudraydigan bo'lib qoldim. Muhayyo. Mulla akangiz-chi, bedanaga ishqiboz. Shundoq sayroqi bedanalarni topib keladilar. Sho'rliklar oyimni ko'rishi bilan soqov bo'ladi qoladi. ("Kelinlar qo'zg'oloni")

4) do'q, buyruq: Farmon. Hoy to'xtasang-chi, kimsan o'zing? ("Kelinlar qo'zg'oloni") Nazmi. Qani, mensiz bir kadam bosib ko'ringlar-chi. Ishongan tog'da kiyik yotmas, deb shuni aytarkanlar-da. Agar dadam xotin olsalar, bo'g'izlayman, degan kim edi? ("Kuyov")

Dramaturg komediyalarida bir qahramon tilida bir necha xil yuklama qo'llanib, fikrni aniq va emotsiyali tarzda yetkazib berishga xizmat qilgan: Farmon. *Sottiniso, buni ham yozing. Bolam bechora shu qorin og'rig'idan sira*

*qutulmadi-da. Yana pul ketqazib, grelka sotib olipti-ya. Uyga kelganda-ku, butilkaga issiq suv quyib berardik. ("Kelinlar qo'zg'oloni")*

Ushbu parchada inkor (sira), ta'kid (-da, -ku) hamda taajjub (-ya) yuklamalari qo'llanib, Farmon bibining o'g'lining qilgan ishiga nisbatan taajjubi (grelka sotib olgani uchun) va ta'kid orqali tanbehi (uyga kelganda-ku, butilkaga issiq suv quyib berardik) imlitsit tarzida ifodalangan. Adib bu orqali qahramon nutqini individuallashtirishga, uning qattiqko'lligiga tomoshabin (kitobxon)ni ishontirishga erishgan.

Yoki: G'ani (sapchib o'rnidan turib ketadi). Iya, iya, hali niyatlarining shumidi?! Onangni ketidan meni ham jo'natmoqchimisanlar? O'limimni kutib o'tirgan ekansanlar-da. Yo'-o'q, men hali-veri o'lmayman. ("Kuyov")

Bunda so'roq (-mi) va ta'kid (-da) yuklamalari orqali nafaqat so'roq va ta'kid ma'nosi, balki qahramonning kuchli g'azabi, noroziligi va alami ifodalangan. Qahramon so'roq yuklamasi -mi orqali tinglovchilardan javob olishni maqsad qilmagan. Ularga nisbatan noroziligini, xafa ekanligini ko'rsatib, dramaga komedik ruh bergen. Mana bu parchada ham yuklama orqali xuddi shunday munosabat reallashgan:

G'ani. Uylanolmaymanmi, a, uylanolmaymanmi? Shu zax, qorong'i uyda ko'krugimni zaxga bosib muzdek yostiqni quchoqlab g'ingshib yotaveramanmi?!. ("Kuyov")

Bu o'rinda yuklamalar o'z ma'nosidan tashqari boshqa pragmatik ma'nolarni yetkazishga xizmat qilgan. Bu esa yuklamalarning badiiy adabiyotdag'i imkoniyatini ko'rsatadi.

Qudrat. Nima qilasan, uni, opa?

Bahri. Chaqir uni. Chaqir dedimmi, chaqir! ("Kuyov").

Ushbu dialogda esa so'roq yuklamasi orqali buyruq hamda ta'kid ma'nosi ifodalangan. Buyruq ma'nosi buyruq-istik mayl shaklidan tashqari yuklamalar orqali ham hosil bo'lishi mumkinligi adib mahorati orqali namoyon bo'lgan.

Nazmi. Hali to'y ham bo'ladimi?

Bahri. Karnay-surnay chalinadimi? ("Kuyov")

Bu misolda so'roq yuklamasi orqali hayratlanish ma'nosi anglashiladi. Adib komik vaziyatni yaratish uchun maxsus yuklamalarning pragmatik ma'nolarini reallashtirishga erishgan.

Albatta, men shoir emasman, bu qapishishni nima deydi, o'pich deydimi, bo'sa deydimi bilmayman. Hozir ko'rib turganim manzara o'pichga ham, bo'saga ham o'xshamasdi, uni ruxsat bersanglar, so'rish deb qo'yaqolay. ("Xandon pista")

Ushbu parchada qo'llangan so'roq yuklamasi hisoblangan -mi sof so'roq ma'nosini ifodalamay, nutqqa emotsiyal bo'yoq bergen. So'zlovchining asosiy maqsadi savolga javob olish emas, balki o'sha masalada o'zining bilmasligini ko'rsatish.

Umuman olganda, hajviy asardagi yumorning paydo qilinishi, zukkolik, qochiriq kabilarning ta'minlanishi muayyan til birliklari va ularning leksik, grammatik, stilistik, pragmatik xususiyatlari bilan ham bevosita bog'liq. Chunki har qanday nutqiy faoliyatdagi kommunikativ maqsad til birliklarining lisoniy-pragmatik imkoniyatlari orqali ta'minlanadi. Bu esa badiiy nutq tarkibida ishtirok etadigan barcha leksik-morfologik birliklarning lisoniy-nutqiy xususiyatlari, imkoniyat va voqelanishi yuzasidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilishini taqozo qiladi. Ayniqsa, hajviy asarlar matnidagi leksik-morfologik vosita va omillarni tekshirish, tahlil qilish va ularning nutq jarayonidagi grammatik-pragmatik ma'no va vazifalarini aniqlash, tavsiflash va tasniflash kun tartibidagi muhim masalalardan hisoblanadi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1983. – 383 b. –B. 372-373.
2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B. 147. – 336 b.
3. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – 77 б. – Б. 16.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. –Toshkent, 1975. –B. 575;
5. Shoabdurahmanov Sh. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'qituvchi, 1980. –B.432;
6. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. –Toshkent, 1987.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº S/9 (4) – 2024*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).